# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*

*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, may.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Shakarov Zafar Gʻafforovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻz FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Boʻtaboyev Mahammadjon Toʻychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulugʻbek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon oʻgʻli,** Texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Joʻraeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulugʻbek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish” (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ......10
**Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли**
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEXANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI......18
**Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna**
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА......26
**Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович**
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ......35
**Габбарова Ильмира Володиевна**
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH......41
**Amirov Shavkat Rahmatullayevich**
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ......48
**Усманова Азиза Баходировна**
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH......53
**Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li**
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI......62
**Alimova Dilafro'z Tohir qizii**
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)......68
**Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi**
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR......67
**Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI......74
**Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi**
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH......82
**Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li**
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI......89
**Muxtorova Shaxlo Farxodovna**
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH......101
**Qo'ziboyev Behzod Hamidovich**
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY......106
**Sultanova Kamila Mukhtorali kizi**
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH......111
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**

MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ..... 117
**Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna**
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .................... 123
**Turdikulova Moxira Maxmasharifovna**
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .................................. 127
**Kaxorova Zamira Safaraliyevna**
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI ........ 132
**Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich**
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQARISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... ........ 143
**Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin**
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI........ 147
**Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.**
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 151
**Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich**
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI........ 156
**Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna**
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH ........ 161
**Yusupova Feruza Yo'ldoshevna**
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI ........ 166
**Irgashev Anvar Farxodovich**
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI........ 173
**Raxmankulov Sherzod Shokirovich**
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР ........ 178
**Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы**
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI ........ 184
**O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li**
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQISH........ 189
**Xamidova Zarifa Urol qizi**
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI........ 196
**Ro'zmetov Mansur**
O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI........ 200
**Shaydulova Marjona Alisher qizi**
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI........ 205
**Rizoyev Farrux Hikmatilloyevich**
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHIYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI........ 210
**Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li**
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .......... 215
**Komilova Nodira Abdirahmon qizi**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ ........ 225
**Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович**
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ........ 231
**Тожалиев Шохрух Талип ўғли**
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING ........ 236
**Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna**
O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH ........ 241
**Azlarova Aziza Axrorovna**
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI ........ 248
**Marufxanov Davron Hasanovich**
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 255
**Isakjanova Saboxat Muhamedovna**
MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI ........ 263
**Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna**
DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI ........ 268
**Anvar Deberdiyev**
RAQAMLI XIZMATLARNING O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O‘RNI ........ 272
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi**
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 278
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**
IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILIYATIGA YANGICHA YONDASHUV ........ 283
**Tadjiev Bexzod Umidjanovich**
OTMNI MOLIYAVIY TA’MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELLARI ........ 290
**Tuxliyev Bozor Karimovich**
TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 293
**Abirova Nargizabonu**
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 298
**Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna**
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI ........ 303
**Sharipova Shahlo Istamovna**
METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 308
**Maxmudov Dostonbek Soyibjon o‘g‘li**
SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 312
**Mirzakulova Risolat Musurmankulovna**
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI ........ 317
**Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra**

OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOIY XARAJATLARNI BOSHQARISH ........ 323
**Primova Nigora Ikrom qizi**
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR ........ 331
**Raxmankulov Sherzod Shokirovich**
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQISH DARAJASI .. 337
**Aripov Ulug'bek Bahodirovich**
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 341
**Xakimov Akbar Anvarovich**
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI ........ 344
**Majidova Maxliyo A'zam qizi**
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 354
**Komilova Nodira Abdirahmon qizi**
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV) ........ 362
**Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova**
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES ........ 367
**Sanemkhan Abdullaeva**
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 375
**Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li**
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQISH ........ 379
**Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin**
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА ........ 386
**Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек**
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 391
**Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li**
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI ........ 397
**Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi**
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI ...... 403
**Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna**
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI ........ 407
**Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi**
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHIYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI ........ 411
**Karimova Shaxnoza O'ktamovna**
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 418
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH ........ 423
**Xalimov Shaxboz Xalimovich**
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI ...... 427
**Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich**

MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEXNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT ........ 430

**Utkirova Mamura Faxriddin qizi**
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI ........ 436

**Isakov Axmadali Esanbayevich**
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 444

**Abdunabiyev Sirojiddin G‘anijon o‘g‘li**
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI ........ 452

**Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi**
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG‘LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI ........ 461

**Sharapov Umidjon Shavkatovich**
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI ........ 471

**Berdiyeva Dilfuza Axatovna**
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI ........ 477

**Turayev Abduvoxid Kuldashevich**
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 483

**Alimova Dilafro‘z Tohir qizi**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 488

**Suvonov Ibrohim Izbosarovich**
QORAKO‘L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO‘RINISHI VA XUSUSIYATLARI ........ 492

**Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.**
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ........ 497

**Koriev Orif Azizovich**
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO‘NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 502

**Berdiyev Jasur Qo‘ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich**
SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI ........ 507

**Alimov Baxodir Batirovich**
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI ........ 513

**Turg‘unov Nodirbek Muminjanovich**
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI ........ 516

**Xodjimatov Maksudbek Ubaydullayevich**
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI ........ 520

**Berdiyev Jasur Qo‘ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich**
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR ........ 526

**Nazarova Shohista Tolmas qizi**
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI ........ 531

**Xasanov Kamoliddin Akmal o‘g‘li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o‘g‘li, Jalolov Jafar Jamol o‘g‘li**

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR ........ 537
**Umurzakov Dilshodbek Xakimovich**
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR........ 543
**Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li**
MINTAQANING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 548
**Maxmudov Jasurbek Ergashevich**
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA........ 553
**Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li**
MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI........ 560
**Turdiyeva Muqaddas Umarovna**
МОДЕЛЬ ЦИФРОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБЪЕКТОВ........ 565
**Гулямов Шухрат, Шамсутдинова Винера, Караханова Алсу, Зайниддинова Зебинисо**
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI ........ 571
**Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li**
TIJORAT BANKLARINING XALQARO KAPITAL BOZORLARIGA INTEGRATSIYASI VA INVESTITSION SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI........ 576
**Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich**
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSH SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBAT USTUNLIKLARINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ........ 583
**Asenbaeva Aydaygul, Toshqulova Aziza**
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI........ 587
**Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich**
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI........ 591
**Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich**
SCENARIO-BASED ECONOMETRIC EVALUATION OF REAL INVESTMENT EFFICIENCY IN SMALL BUSINESS ACTIVITIES........ 601
**Otajanov Umid Abdullayevich**
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI........ 611
**Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich**
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI ........ 619
**Boltayev Zokirjon Otanazarovich**
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SUV RESURSLARI SALOHIYATIDAN FOYDALANISH USULLARI........ 622
**Sapayev Azamat Rustamovich**
ФИСКАЛЬНЫЕ ПРАВИЛА В СРЕДНЕСРОЧНОМ БЮДЖЕТНОМ ПЛАНИРОВАНИИ........ 626
**E.M. Сон**
BUXORO VILOYATINING YALPI HUDUDIY MAHSULOT DINAMIKASI VA UNING TARMOQ TUZILMASIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR TAHLILI ........ 631
**Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna**
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI........ 636
**Raupov Shuxrat Soyibovich**
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI........ 636
**Raupov Shuxrat Soyibovich**

MARKETING FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA REAL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI SSENARIYLAR ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH ....... 652
**Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna**
QURILISH KORXONALARIDA XARAJATLARNI KLASSIFIKASIYA QILISH VA HISOBGA OLISH TIZIMI .... 663
**Toshimov Azizbek Hakimovich**
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH....... 667
**Jobborov Elmurod Normo‘minovich**
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING HUDUDIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI... 672
**Jo‘rayev Ilhomjon Kamolidinovich**

# NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING HUDUDIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI



**Jo‘rayev Ilhomjon Kamolidinovich**
University of Business and Science
Yashil iqtisodiyot kafedrasi dotsenti (PhD)
ORCID:0009-0004-0136-4524

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznesning hududiy iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida taqqoslama va dinamik tahlil usullari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari soni 2020–2024-yillarda 22 034 tadan 36 021 tagacha yetib, 63,5 foizga oshgan. Kichik biznesning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan 19–20 foiz punktga yuqori darajada saqlanib qolgan. Tadqiqot natijalari asosida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda davlat dasturlaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, hududiy iqtisodiyot, yalpi hududiy mahsulot, tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль малого бизнеса в развитии региональной экономики Наманганской области в 2020–2024 годах. В исследовании использованы методы сравнительного и динамического анализа на основе данных Агентства статистики Республики Узбекистан и Управления статистики Наманганской области. Результаты показывают, что количество субъектов малого бизнеса в 2020–2024 годах увеличилось с 22 034 до 36 021, что составляет рост на 63,5 %. Доля малого бизнеса в валовом региональном продукте области сохранялась на уровне, превышающем среднереспубликанский показатель на 19–20 процентных пунктов. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по укреплению финансовой устойчивости, внедрению цифровых технологий и эффективному использованию государственных программ.

**Ключевые слова:** малый бизнес, региональная экономика, валовой региональный продукт, предпринимательство, экономический рост.

**Abstract**. This article analyzes the role of small business in the development of the regional economy of Namangan region during 2020–2024. The study applies comparative and dynamic analysis methods based on data from the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan and the Namangan Regional Statistics Department. The results show that the number of small business entities increased from 22,034 to 36,021 during 2020–2024, representing a growth of 63.5 percent. The share of small business in the gross regional product of the region remained 19–20 percentage points higher than the national average. Based on the findings, practical recommendations were developed for strengthening financial stability, introducing digital technologies, and effectively utilizing state programs.

**Keywords:** small business, regional economy, gross regional product, entrepreneurship, economic growth.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlari jahon miqyosida barcha ish o‘rinlarining 70 foizidan ortig‘ini ta’minlaydi hamda yalpi ichki mahsulotning 50 foizdan ko‘prog‘ini shakllantiradi [1]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlari esa kichik biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham bandlikni oshirish, kambag‘allikni kamaytirish va hududiy muvozanatni ta’minlash bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi [2].

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik biznes subyektlariga davlat ko‘magini kuchaytirish hamda hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish alohida vazifa sifatida belgilangan [3]. Mazkur siyosat doirasida mamlakatning barcha hududlarida, shu

jumladan Namangan viloyatida ham kichik biznes subyektlari sonini koʻpaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va hududiy yalpi mahsulot shakllanishidagi ulushini kengaytirish maqsad qilib qoʻyilgan.

Namangan viloyati Oʻzbekistonning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri boʻlib, 2025-yil maʼlumotlariga koʻra, viloyat aholisi 3190,8 ming kishini tashkil etadi [4]. Viloyat anʼanaviy ravishda toʻqimachilik, tikuvchilik va oziq-ovqat sanoati sohasida ixtisoslashgan boʻlib, ushbu tarmoqlar kichik biznes faoliyati uchun keng imkoniyat yaratadi. 2025-yil maʼlumotlariga koʻra, kichik biznes korxonalari Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulotining 70 foizdan ortigʻini tashkil etmoqda. Biroq ushbu koʻrsatkichning yuqori darajasiga qaramay, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati va innovatsion faolligi hali ham yetarlicha taʼminlanmagan. Bundan tashqari, 2020–2024-yillar oraligʻida COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi tiklanish jarayoni kichik biznes rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan boʻlib, ushbu taʼsirning hududiy xususiyatlari ilmiy jihatdan yetarlicha oʻrganilmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistondagi kichik biznesga oid tadqiqotlarning aksariyati umumdavlat miqyosida olib borilgan yoki alohida tarmoqlar kesimida koʻrib chiqilgan. Namangan viloyatining hududiy iqtisodiyoti va kichik biznes oʻrtasidagi bogʻliqlikni maxsus oʻrganuvchi, 2020–2025-yillar dinamikasini qamrab oluvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas. Mazkur boʻshliq ushbu tadqiqotning ilmiy zaruratini asoslaydi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning asosiy maqsadi 2020–2025-yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznesning hududiy iqtisodiyot rivojlanishidagi oʻrni va ahamiyatini tahlil qilish, rivojlanishga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash hamda hududiy iqtisodiyotni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqola adabiyotlar sharhi, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa boʻlimlaridan iborat boʻlib, tahlil Oʻzbekiston Statistika agentligi hamda Namangan viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida olib borilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes fenomenini ilmiy jihatdan oʻrganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlana boshladi. Iqtisodiy nazariya sohasida Schumpeter [5] tadbirkorlikni «ijodiy buzish» jarayoni sifatida talqin etib, kichik biznesni innovatsion oʻzgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida asosladi. Uning nazariyasiga koʻra, kichik korxonalar yangi mahsulot, texnologiya va bozor imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy tizimning dinamikasini taʼminlaydi. Keyinchalik Storey [6] kichik biznesning bandlik yaratishdagi rolini empirik jihatdan isbotlab, uni milliy iqtisodiyotning «umurtqa pogʻonasi» sifatida taʼrifladi. Audretsch va Thurik [7] esa kichik biznesni «bilim iqtisodiyoti» sharoitida innovatsiyalarni tarqatishning asosiy mexanizmi sifatida koʻrib, uni yangi iqtisodiy oʻsish nazariyalari bilan bogʻladi.

Kichik biznesni hududiy iqtisodiyot kontekstida oʻrganishda Porter [8] tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Porter taʼkidlashicha, geografik jihatdan toʻplangan kichik va oʻrta korxonalar oʻzaro raqobat va hamkorlik orqali mahsulot sifatini oshiradi, innovatsion faollikni kuchaytiradi hamda hududiy raqobatbardoshlikni taʼminlaydi. Ushbu nazariy yondashuv kichik biznesning nafaqat alohida korxona, balki hududiy iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida oʻrganilishi zarurligini asoslaydi.

Hududiy iqtisodiyot rivojlanishida kichik biznesning oʻrnini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar soni soʻnggi oʻn yilliklarda sezilarli darajada ortgan. Fritsch va Mueller [9] Germaniya hududlari misolida oʻtkazilgan tadqiqotda kichik biznesning hududiy iqtisodiy oʻsishga taʼsiri bevosita emas, balki bilvosita — raqobat muhitini kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va texnologiyalarni tarqatish orqali amalga oshishini isbotladi. Wennekers va Thurik [10] esa tadbirkorlik faoliyati darajasi bilan iqtisodiy oʻsish surʼatlari oʻrtasidagi ijobiy korrelyatsiyani tahlil qilib, kichik biznesni endogen oʻsishning asosiy omili sifatida belgiladi.

Oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznesning hududiy rivojlanishdagi rolini oʻrgangan McIntyre [11] ushbu mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanishi koʻproq institutsional muhit, qonunchilik tizimi va davlat koʻmagi sifatiga bogʻliqligini koʻrsatdi. Ayyagari, Beck va Demirguc-Kunt [12] tadqiqotlari esa rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning YaIMdagi ulushi yuqori boʻlsa ham, ularning rasmiy kredit tizimiga kirish imkoniyati cheklanganligi hududiy rivojlanishga salbiy taʼsir koʻrsatishini tasdiqladi. Mazkur xulosalar Oʻzbekiston kabi oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlariga ham toʻliq tatbiq etiladi.

Oʻzbekistonda kichik biznesni rivojlantirish masalasi mustaqillik yillaridan boshlab davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Raximov [13] tadqiqotlarida Oʻzbekistonda kichik biznesning shakllanish bosqichlari tahlil qilinib, 1990-yillardan 2010-yillargacha boʻlgan davrda kichik biznes subyektlari sonining jadal oʻsishi, ammo sifat koʻrsatkichlarining hali ham yetarli darajaga yetmaganligini koʻrsatib bergan. Toshmatov [14] oʻz tadqiqotlarida Oʻzbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, soliq yukining kamaytirilishi va maʼmuriy toʻsiqlarning bartaraf etilishi kichik biznes faoliyatini sezilarli darajada jonlantirishini empirik asosda isbotlagan. Yusupov va Xoliqov [15] Oʻzbekiston sharoitida kichik biznes va bandlik

o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, kichik korxonalarning ish o‘rni yaratishdagi ulushi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini, biroq mehnat unumdorligi hali ham yirik korxonalarga nisbatan past darajada qolayotganligini aniqlagan. Xasanov [16] esa O‘zbekistonda kichik biznesning moliyalashtirilishi muammolarini o‘rganib, bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kichik korxonalar rivojlanishidagi asosiy to‘siqlardan biri ekanligini ta’kidlagan.

Namangan viloyatida kichik biznes faoliyatini o‘rganishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar hali ham yetarli darajada emas. Mavjud ishlarning aksariyati statistik ma’lumotlarni umumlashtirish yoki alohida tarmoqlar kesimida tahlil qilish bilan cheklanib qolgan. Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes korxonalari viloyat yalpi hududiy mahsulotining 70 foizidan ortig‘ini tashkil etib, viloyat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda [17]. Biroq ushbu ko‘rsatkichning shakllanish mexanizmlari, dinamikasi va undagi hududiy farqlar ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilmagan. *Innovations in Science and Technologies* jurnalida chop etilgan so‘nggi tadqiqot [18] Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining kredit reytingini tahlil qilib, moliyaviy ochiqlikning yetishmasligi, innovatsiyaga sust munosabat va soliq intizomining pastligini asosiy muammolar sifatida aniqlagan. Biroq mazkur tadqiqot ham kichik biznesning hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga kompleks ta’sirini qamrab olmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili kichik biznesning xalqaro va milliy darajadagi rolini yetarlicha yoritgan bo‘lsa-da, Namangan viloyati misolida 2020–2025-yillar dinamikasini qamrab oluvchi, COVID-19 pandemiyasining hududiy ta’sirlarini hisobga olgan holda kichik biznesning hududiy iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rnini kompleks tahlil qiluvchi tadqiqot hali amalga oshirilmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur tadqiqotning ilmiy asosini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot miqdoriy tahlil metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, kuzatuv-tavsifiy tadqiqot dizayni qo‘llanilgan. Asosiy manba sifatida rasmiy statistik idoralar ma’lumotlaridan foydalanilgan: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [4] respublika miqyosidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha, Namangan viloyati statistika boshqarmasi [17] hududiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Barcha ma’lumotlar 2020–2025-yillarni qamrab oladi.

Tadqiqotda ikki tahlil usuli qo‘llanildi. Taqqoslama tahlil doirasida viloyat ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan qiyoslandi. Dinamik tahlil doirasida yillik o‘zgarishlar ketma-ketligi kuzatildi; COVID-19 pandemiyasining 2020–2021-yillardagi ta’siri va 2022–2025-yillardagi tiklanish jarayoni alohida bosqich sifatida tahlil qilindi. Yillik o‘sish sur’ati quyidagi formula asosida hisoblandi:

YO‘S = (Joriy yil qiymati – O‘tgan yil qiymati) / O‘tgan yil qiymati × 100%

Tadqiqotning asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat: norasmiy iqtisodiyot sektori qamrab olinmagan; 2025-yil bo‘yicha dastlabki ko‘rsatkichlardan foydalanilgan; tuman darajasidagi ichki farqlar to‘liq tahlil qilinmagan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari soni barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatdi. 2020-yilda viloyatda 22 034 ta kichik biznes subyekti ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 36 021 taga yetdi, ya’ni ushbu davr mobaynida umumiy o‘sish 63,5 foizni tashkil etdi (1-jadval) [4].

1-jadval.
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari sonining dinamikasi

| Yil | Subyektlar soni (ta) | Yillik o‘sish sur’ati (%) |
|---|---|---|
| 2020 | 22 034 | - |
| 2021 | 27 314 | +24,0% |
| 2022 | 29 982 | +9,8% |
| 2023 | 33 598 | +12,1% |
| 2024 | 36 021 | +7,2% |

*Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2024*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori o‘sish sur’ati 2020–2021-yillarda, ya’ni COVID-19 pandemiyasidan

keyingi tiklanish davrida kuzatildi — 24,0 foiz. Keyingi yillarda oʻsish surʼati barqarorlashib, 7–12 foiz oraligʻida saqlanib qoldi. Bu holat viloyatdagi tadbirkorlik muhitining asta-sekin mustahkamlanib borayotganini koʻrsatadi.

Taqqoslama tahlil natijalariga koʻra, Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari soni respublika umumiy sonining 5,9–6,2 foizini tashkil etib, oʻrta darajadagi ulushni saqlab kelmoqda (2-jadval) [4].

2-jadval.
Respublika va Namangan viloyati kichik biznes koʻrsatkichlari

| Yil | **Respublika (ta)** | **Namangan (ta)** | **Namangan ulushi (%)** |
|---|---|---|---|
| 2020 | 353 921 | 22 034 | 6,2% |
| 2021 | 436 981 | 27 314 | 6,3% |
| 2022 | 488 936 | 29 982 | 6,1% |
| 2023 | 555 971 | 33 598 | 6,0% |
| 2024 | 614 897 | 36 021 | 5,9% |

*Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024*

Mazkur koʻrsatkichlar shuni koʻrsatadiki, Namangan viloyatining respublika miqyosidagi ulushi tadqiqot davri mobaynida nisbatan barqaror boʻlib, 6 foiz atrofida saqlanib qoldi. Bu esa viloyatning respublika tadbirkorlik tizimida oʻrta salohiyatli hudud sifatida saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

Dinamik tahlil natijalariga koʻra, kichik biznesning Namangan viloyati YHMidagi ulushi 2020–2024-yillar davomida pasayish tendensiyasini koʻrsatdi. 2020-yilda ushbu koʻrsatkich 76,4 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 73,9 foizgacha tushdi (3-jadval).

3-jadval.
Kichik biznesning YHMdagi ulushi: Namangan viloyati va respublika oʻrtacha koʻrsatkichi

| **Yil** | **Respublika oʻrtacha (%)** | **Namangan viloyati (%)** | **Farq (foiz punkti)** |
|---|---|---|---|
| 2020 | 56,7 | 76,4 | +19,7 |
| 2021 | 56,3 | 76,1 | +19,8 |
| 2022 | 54,3 | 74,6 | +20,3 |
| 2023 | 53,8 | 74,0 | +20,2 |

*Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024 [4]; Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2024*

Jadval tahlili shuni koʻrsatadiki, Namangan viloyatida kichik biznesning YHMdagi ulushi respublika oʻrtacha koʻrsatkichidan doimiy ravishda 19–20 foiz punktga yuqori boʻlib kelmoqda. Bu esa viloyat iqtisodiyotining kichik biznesga nisbatan yuqori darajada ixtisoslashganligini va unga bogʻliqligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi asosiy topilmalar aniqlandi. Birinchidan, 2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari soni 22 034 tadan 36 021 taga yetdi, bu 63,5 foizlik oʻsishni anglatadi. Ikkinchidan, COVID-19 pandemiyasidan keyingi tiklanish jarayonida 2021-yilda eng yuqori oʻsish surʼati — 24,0 foiz kuzatildi. Uchinchidan, kichik biznesning YHMdagi ulushi barcha yillarda respublika oʻrtacha koʻrsatkichidan 19–20 foiz punktga yuqori boʻldi. Toʻrtinchidan, 2020–2024-yillar davomida ushbu ulushning asta-sekin pasayishi — 76,4 foizdan 73,9 foizgacha kamayishi yirik korxonalar va boshqa iqtisodiy subyektlarning nisbatan oʻsib borayotganligidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot 2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznesning hududiy iqtisodiyot rivojlanishidagi oʻrnini tahlil qildi. Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, kichik biznes subyektlari soni 22 034 tadan 36 021 taga yetib, 63,5 foiz oʻsdi. Kichik biznesning viloyat YHMidagi ulushi respublika oʻrtacha koʻrsatkichidan 19–20 foiz punktga yuqori boʻlib, 73,9–76,4 foiz oraligʻida saqlanib qoldi. Biroq ushbu ulushning asta-sekin pasayishi kichik biznesning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida uchta asosiy tavsiya ishlab chiqildi: moliyaviy hisobotlarni muntazam yuritish va kredit reyting koʻrsatkichlarini oshirish; raqamli texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kengaytirish; davlat dasturlari — “Yosh tadbirkor” va “Ayol tadbirkor” doirasidagi imtiyozlardan samarali foydalanish.

Kelgusida tuman darajasidagi hududiy farqlar, norasmiy iqtisodiyot sektori va kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga taʼsir etuvchi omillarni oʻrganish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatida kichik biznesning barqaror rivojlanishi uchun miqdoriy oʻsish bilan birga moliyaviy barqarorlik, innovatsion

faollik va raqobatbardoshlikni oshirish strategik zaruriyat hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Labour Organization (ILO). Small and Medium Enterprises and Decent and Productive Employment Creation. Geneva: ILO, 2023. ilo.org
2. OECD. OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2021. Paris: OECD Publishing, 2021. doi.org/10.1787/97a5bbfe-en
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
4. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni. Namangan, 2026. namstat.uz
5. Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.
6. Storey, D.J. Understanding the Small Business Sector. London: Routledge, 1994.
7. Audretsch, D.B., Thurik, A.R. "What's New about the New Economy? Sources of Growth in the Managed and Entrepreneurial Economies." Industrial and Corporate Change, 2001, 10(1), 267–315.
8. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
9. Fritsch, M., Mueller, P. "Effects of New Business Formation on Regional Development over Time." Regional Studies, 2004, 38(8), 961–975.
10. Wennekers, S., Thurik, R. "Linking Entrepreneurship and Economic Growth." Small Business Economics, 1999, 13(1), 27–56.
11. McIntyre, R.J. "The Role of Small and Medium Enterprises in Transition." WIDER Discussion Papers, 2001, № 68.
12. Ayyagari, M., Beck, T., Demirguc-Kunt, A. "Small and Medium Enterprises Across the Globe." Small Business Economics, 2007, 29(4), 415–434.
13. Raximov, I. O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
14. Toshmatov, A. "O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, № 3.
15. Yusupov, M., Xoliqov, R. "Kichik biznes va bandlik: O'zbekiston tajribasi." O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2022, № 2.
16. Xasanov, B. "O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish muammolari va yechimlar." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020, № 4.
17. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Yalpi hududiy mahsulotdagi kichik biznes ulushi. Namangan, 2024. namstat.uz
18. Innovations in Science and Technologies. "Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari reyting darajasini baholash." IST jurnali, 2025, maxsus son. innoist.uz
19. Creswell, J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 4th ed. Thousand Oaks: SAGE Publications, 2014.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 5**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100